

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, A.U.G'ofurov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik mazmuni	9
B.Sh.Shermuhammadov, D.R.Murodova	
Fanlararo integratsiya asosida bo'lajak musiqa ta'llimi o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli	16
N.M.O'ranova	
Xorijiy ta'lilda tyutorlik faoliyatining mohiyati va funksiyalari	20
B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish	24
B.A.Umarov	
Raqamli texnologiyalar vositasida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirish tamoyillari	28
I.M.Saidov	
Vatanparvarlik va yuksak ma'naviy tarbiya - uchinchi renessans poydevorining omili	33
M.I.Alimjonova	
Ta'larning globallashuvi sharoitida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni.....	37
I.I.Yo'ibarsova	
Talabalarda bioetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-tarixiy an'analari hamda zamonaviy yondashuvlari.....	45
M.I.Alimjonova	
Talabalarni madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli.....	49
F.A.Ibroximov, B.M.Jo'raqo'ziyev	
Mafkuraviy immunitet va uning zarurati	56
Z.J.Pardaeva	
Mustaqillik davri o'zbek romanchiligi: badiiy va ilmiy tafakkur masalalari.....	60
F.A.Ibroximov	
Huquqiy fanlarni o'qitilishidagi uzviylik va uzluksizlikning mavjud holati.....	70
L.D.Tuganova	
Gender va ta'lilda tenglik muammosi	75
Sh.X.Tog'aev	
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy masalalari	78
A.R.Saydullayeva	
Talabalarda gender madaniyatini rivojlantirishning tuzilishi va tarkibiy qismlari	83
G.S.Raxmonova	
Nostandart tafakkur tarzini rivojlantirishda mustaqil ishlarning pedagogik imkoniyatlari.....	87
M.R.Usmanov	
O'tish davri yoshidagi ruhiy o'zgarishlarning rivojlanish xususiyatlari.....	93
X.Y.Jo'rayeva, M.T.Turkistonova	
Oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanlarini o'qitishning nazariy asoslari	97
E.S.Yuldashev	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	101
G.B.Karimova	
Jismoniy tarbiya fanning interfaol ta'lim usullari va ularni innovatsion faoliyatini shakllantirish	107
F.O.Toshboltayev	
Zamonaviy ta'lilda pedagogik imkoniyatlar va axborot texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash	111
S.D.Akzamov	
Jismoniy tarbiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni bolalar va o'smirlar organizmiga ta'siri.....	115

**NOSTANDART TAFAKKUR TARZINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL ISHLARNING
PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В РАЗВИТИИ
НЕСТАНДАРТНОГО МЫШЛЕНИЯ**

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF INDEPENDENT WORK IN DEVELOPMENT OF NON-STANDARD THINKING

Raxmonova Gulchexra Salaydinovna¹

1Raxmonova Gulchexra Salaydinovna

– Chirchiq davlat pedagogika universiteti Milliy g'oya huquqta'lim kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqola yurtimiz ta'lrim muassasalarida olib borilayotgan, o'quvchilar o'tasida kreativ va nostandard fikrlash va dars mashg'ulotlarida, bu jarayonda ta'lrim mazmunini uzvyiligini ta'minlashni mavjud holati, mavjud muommo va kamchiliklar, ularni yechimiga doir masalalar ilmiy-metodik tahlil qilingan. Shu bilan birga ta'lrim samaradorligiga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlar, nostandard va kreativ fikrlashning dars mashg'ulotlarida qo'llashga oid tavsiyalar xorijiy va maxaliy tajribadan kelib chiqib ilgari surilgan. O'zbekiston Respublikasida Milliy ta'lrim dasturining mazmun-mohiyatini yoritish ham maqsad qilingan. O'rganilgan holatlar tahlilidan kelib chiqib, o'quvchi-yoshlarning tafakkur va fikirlash darajasiga munosabat bildirish, ko'nikmalarini oshirishga doir takliflar ilgari surilgan.

Аннотация

Данная статья представляет собой научно-методический анализ современного положения, существующих проблем и недостатков, вопросов, связанных с решением творческого и нестандартного мышления занятий у студентов в образовательных учреждениях нашей страны. Подходы, рекомендации по использованию нестандартного и творческое мышление на уроках выдвигалось на основе зарубежного и отечественного опыта. На основе анализа изученных ситуаций были выдвинуты предложения по реагированию на уровень мышления учащихся по повышению их квалификации.

Abstract

This article is a scientific and methodical analysis of the current situation, existing problems and shortcomings, issues related to the solution of creative and non-standard thinking and lessons among students in the educational institutions of our country. Approaches, recommendations regarding the use of non-standard and creative thinking in the lessons were put forward based on foreign and local experience. Based on the analysis of the studied situations, proposals were put forward to respond to the level of thinking and thinking of students and improve their skills.

Kalit so'zlar: ta'lrim, fikrlash, nostandard, nostandard fikrlash, ijod, bilim, o'rgatish.

Ключевые слова: образование, мышление, нестандартность, нестандартное мышление, творчество, познание, обучение.

Key words: education, thinking, non-standard, non-standard thinking, creativity, knowledge, learning.

KIRISH

Zamonaviy ta'lrim jarayonida nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu masalani ro'yobga chiqarishda mustaqil ta'lrim olish bilan bog'liq metodik yondashuvning o'ziga xos jihatlarini ochib berish muhim ahamiyatga egadir. Bu jarayon pedagogik imkoniyatlarining muhim qismi bo'lib, ta'lrim oluvchilarni mustaqil izlanishga, olingen nazariy bilimlarni kreativlik assosida qo'shimcha manbalar bilan boyitish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida dars samaradorligi va sifatini oshirish, ta'lim oluvchilarni faollashtirish, o'z ustida ishslash, berilgan mavzuni qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'yintirgan holda o'zlashtirish hamda qulay metodikalarni qo'llash mustaqil ta'lrim jarayonidagini o'zini yuqori natijasini ko'rsatadi. Shuningdek, mustaqil ta'lrim, ta'lrim oluvchining kreativ yondashuvini rivojlantirib, bilishga, o'rganishga va ma'lumotlarni qayta ishslashga hamda mazmun-mohiyatini yanada to'ldirib yetkazib berish motivatsiyasini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mahalliy olimlardan M.Quronov, G.Aripova, B.Adizov, U.Inoyatov, U.Mahkamov, R.Safarova, B.Umarov, O.Jamoldinova, D.Ro'ziyeva, B.Xodjayev, Ch.Shakirova, Sh.Shodmonova, E.Yuzlikayeva, N.M.Egamberdiyevalarning tadqiqot ishlarda yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish omillari, ularning jamiyatga oson ijtimoiylashuvini ta'minlash, ijodiy, kreativ, nostandard tafakkur tarziga

o'rgatish, ma'nnaviy-axloqiy, badiiy-estetik dunyoqarashini qaror toptirish, ularda milliy qadriyatlarga hurmat va tolerantlik hissini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari; J.Tulenov, M.Abdullayeva, G.Tulenova, G.G'affarova, L.A.Qurbanova, G.Jalolova, F.Choriyev, Sh.Kubayeva, E.Yusupovlarning ilmiy ishlarida inson tafakkuri va dunyoqarashini rivojlantirishning falsafiy-metodologik tomonlari; Z.Nishonova, M.Davletshin, N.Safayev, A.Jabborov, E.G'oziyev, R.Sunnatovalarning tadqiqtolarida esa inson tafakkuri muammosining psixologik xususiyatlari yoritib berilgan.

O'quvchilarning intellektual kompetentligini rivojlantirishda ijodiy tafakkurning o'rni, nostandard fikrlash shaxs ijtimoiy mavqeyini belgilovchi omil ekanligi, shaxsnинг ijodkorlik salohiyatida nostandard tafakkurning o'rni, kreativ tafakkurning o'quv faoliyati samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, o'quvchining psixologik barqarorligini ta'minlashda nostandard tafakkurning o'rni kabi muammolar T.V.Ogorodova, L.Kananchuk, L.Adamyan, P.I.Pidaksistiy, Ya.A.Ponomarev, V.Lysenko, Yu.Kraynova, S.Marchukova, S.Morozyuk, M.Mixaylova, V.Oparina, A.Rossoxin, N.Pavlyuchenkova, A.Rudakov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda zamonaviy ta'limdi tashkil etish va boshqarishda mustaqil ta'limga oluvchi tomonidan, ya'ni maktabgacha ta'limga tashkiloti, maktab ta'limi, o'rta maxsus ta'limga, oliy ta'limga va oliy ta'limga keyingi ta'limga turlaridan qat'iy nazar, bilimlarni eng samarali o'zlashtirish manbai bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy pedagogik jarayonda mustaqil ta'limga "mustaqil ish" tushunchasi bilan izohlash va uning mazmun-mohiyatini ochib berish hamda ta'limga oluvchilarni nostandard tafakkur tarzini rivojlantirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash maqsadga muvofiq. Ta'limga jarayonida mustaqil ish zamonaviy pedagogikada o'qitishni tashkil etishning o'ziga xos shakli va usuli bo'lib, pedagog faoliyati hamda ta'limga oluvchi faoliyatini bir-biriga bog'liq va farqli jihatlarini o'zida aks ettirgan holda mustaqil bajarish uchun mo'ljallangan maxsus vazifalarni konseptual ahamiyatini ochib beradi.

Tadqiqotchi B.P.Yesipova mustaqil bajarish uchun mo'ljallangan maxsus vazifalarning konseptual ahamiyatini ochib berish yuzasidan o'z ilmiy qarashlarini ilgari surgan bo'lib, mustaqil ishga quyidagicha ta'rif beradi: mustaqil ish o'quv jarayoniga kiritilgan, o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, lekin uni topshirig'iga binoan maxsus belgilangan vaqtda ta'limga oluvchi tomonidan mustaqil holda bajariladigan ishdir. Ta'limga oluvchi ongli ravishda maqsadga erishishga intiladi, aqliy va jismoniy harakatlarining natijalarini u yoki bu shaklda ifodalaydi [10].

Bizning nuqtai nazarmizcha, ta'limga oluvchi mustaqil ishni individual va guruh bo'lib ishlashi, o'qituvchi tomonidan berilgan vazifa va topshiriqqa kreativ yondashishi, o'zaro fikr almashishi, masala mohiyatiga muvofiq bir nechta muqobil yechimlarni taklif etish imkoniyatiga ega. Bu esa, o'z navbatida, ta'limga oluvchida nostandard tafakkur tarzini shakllantirib, o'zining mustaqil fikr va mulohazalarini erkin bildirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan bir vaqtda berilgan topshiriq va vazifalarni maksimal darajada mustahkam o'zlashtirish hamda boshqalarga yetkazib berish bilan bog'liq masalalarni individual yechimini yuzaga keltiradi.

Zamonaviy ta'limga jarayonida ta'limga oluvchi nostandard tafakkurini yuzaga chiqarishda mustaqil ishning asosiy xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanishi maqsadga muvofiq:

- birinchidan, ta'limga oluvchi tomonidan mustaqil ishni bajarishda har tomonlama (ruhiy va jismoniy) tayyorlangan holda alohida vaqt ajratish;
 - ikkinchidan, o'qituvchi tomonidan berilgan vazifa va topshiriqning mazmun-mohiyatini anglagan holda qismalarini alohida tasniflash hamda individual, frontal, guruh bo'lib ishlash;
 - uchinchidan, berilgan topshiriq va vazifalar yechimi jarayonida o'qituvchining bevosita va bilvosita ishtirokini mutlaqo cheklash;
 - to'rtinchidan, ta'limga oluvchining samaradorlik va natijaga erishishga qaratilgan harakatlarining aqliy va jismoniy motivatsiyasini o'z-o'ziga va guruh rag'batiga muvofiqligini yo'naltirib qo'yish;
 - beshinchidan, mustaqil ish jarayonida ta'limga oluvchini maqsadlar sari intilishini pedagogik va psixologik tomonidan oldindan rag'batlantirish;
 - oltinchidan, o'qituvchi tomonidan berilgan vazifa va topshiriq natijasi hamda samarasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ta'limga oluvchi fikrini eshitish, yondashuvini bilish hamda motivatsion baholash.
- Yuqoridaqil ilmiy mulohazamizni ta'limga oluvchilarni mustaqil faoliyatini anglash nazariyasi mohiyati bilan asoslash maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Ta'limga oluvchini mustaqil faoliyati bilan bog'liq masalaga ilmiy nuqtai nazardan yondashish uchta asosiy didaktik yo'nalishni ajratib ko'rsatish imkonini beradi:
- o'quv jarayonida o'quvchilar faolligi va mustaqilligining ahamiyati tamoyilini asoslash;

PEDAGOGIKA

- o'quvchi mustaqil faoliyatini psixologik-didaktik mohiyatini oshib berish va uning bilish va o'zlashtirishdagi o'rnnini aniqlash;

- o'quvchilarni mustaqil ishlarni bajarishga jalg etishning pedagogik vositalari arsenalini yaratish va dars tarkibida bu jarayonni pedagogik boshqarish xarakteri va darajasini aniqlash.

Ta'lim jarayonida mustaqil ishning mantiqiy va mazmuniy jihatni ta'lim oluvchi faoliyati natijasi bilan bevosita belgilanib, uning masala mohiyatiga ijodiy yondashishi, faolligi, vazifalarni o'zlashtirish davriyligi, olingan bilimlarni mustahkamlash ko'nikmalarini shakllanganligi bilan asoslanadi. Albatta, bu jarayon ta'lim oluvchidan nazariy va amaliy, ruhiy va jismoniy hamda ratsional harakatlarning muvofiqlashgan konsentratsiyasini taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan mustaqil ish darajasi nafaqat o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan vazifa va topshiriq mazmuniga, balki ta'lim oluvchining individual imkoniyat va qobiliyatlariga ham bog'liq. Shuning uchun ta'lim oluvchidan mustaqil ishning eng oddiy turlarini bajarish jarayonida kognitiv faol harakat va anglanganlik talab etiladi. Kognitiv jarayonda ta'lim oluvchi mustaqil ishning belgilarini, xususiyati, sifati va boshqa tomonini tavsiflovchi jihatlariga e'tibor qaratishi lozim.

Tadqiqotchi E.A.Golant mustaqil ishni tashkiliy, texnik, kognitiv va amaliy faoliyatda ifodalangan jihatlarini namoyon bo'lish tomonlarini ko'rib chiqqan bo'lsa, J.J.Russo zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda o'quvchilarning mustaqilligini ta'lim jarayonidagi rolini oshirish muammosi bilan qiziqdi. J.J.Russo fikricha, mustaqil harakat shunday faoliyatdirki, ta'lim oluvchi o'z motivlariga ko'ra faoliyatni amalga oshiradi hamda maqsad va vositalarni topadi[11].

Yuqorida ilmiy mulohazalardan kelib chiqib ta'kidlashimiz mumkinki, mustaqil ishning muhim xususiyatlaridan biri bu ta'lim oluvchini faol bilishga yo'naltiradigan va kreativ yondashuvga undaydigan motivdir. Bunda ta'lim oluvchi berilgan vazifa va topshiriqqa nisbatan yechim izlash va uning mohiyatiga kirish yuzasidan asta-sekin harakatni amalga oshirib, o'z-o'ziga nisbatan kreativ yondashishni, natija mahsuli va samaradorligidan qat'iy nazar, ichki rag'batini his etgan holda motivatsion tuyg'uni his eta boshlaydi. Bunda mustaqil ishning mazmuni va shakli, pedagog tomonidan berilgan ko'rsatmalari, qo'llaniladigan pedagogik texnologiya va vositalar, ta'lim oluvchilarni aqliy, ruhiy, amaliy harakatlari hamda faoliyat motivi muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, ta'lim oluvchi mustaqil faoliyat jarayonida maqsadga muvofiqlik tamoyili nuqtai nazarida harakatni amalga oshirib, nostandart tafakkur operatsiyalarini yanada rivojlantirgan holda ijodiy yondashuvni namoyon etadi.

Ta'lim oluvchida nostandart tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq mustaqil ishni quyidagi turlarga ajratish mumkin: mustaqil ish o'quvchini o'zi bilgan va bilmagan narsalar haqida o'ylashga undaydigan umumiy harakat uslubini shakllantirishga qaratilgan vazifalarni o'z ichiga oladi; mustaqil ish tugallangan shaklda, ammo yangi ma'lumotlar kiritilmagan vazifalarni o'z ichiga oladi (yangi qoidalar, ta'riflar ta'lim oluvchining mustaqil tadqiqot faoliyati natijasidir); umumiy harakat uslubiga murojaat qilish orqali mustaqil ish vazifani bajarish qobiliyatini shakllantirish.

Mustaqil ish natijalari ta'lim oluvchiga o'z imkoniyatlarini ko'rish va baholashni o'rgatadi hamda o'z faoliyatini ongli ravishda rejalashtirish qobiliyatini shakllantiradi.

Pedagog tomonidan ta'lim jarayonida mustaqil ishdan maqsadli foydalanish ta'lim oluvchini o'z ustida ishlash qobiliyatini shakllantirib, xotira assotsiatsiyasini mustahkamlaydi, tasavvur olamini kengaytiradi, nostandart fikrlesh jarayoni rivojlanib, ijodiy yondashish ko'nikmasi shakllangan holda yangi bilimlarni o'zlashtirish malakasi ortadi hamda izlanishlar doirasi kengayib, dunyoqarashi yuksaladi.

Shaxsda mustaqil faoliyat kreativlik sifatlarini shakllantirish va tarbiyalashda muhim o'rinni tutadi. Bu borada quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin: har bir aniq vaziyatda assimilyatsiya muayyan didaktik maqsad va vazifaga mos keladi; o'quvchini jaholatdan bilimga o'tkazish harakatining har bir bosqichida kognitiv vazifalarni ma'lum bir sinfini hal qilish uchun zarur hajm va darajadagi bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantiradi hamda aqliy faoliyatni quyi bosqichidan yuqori darajaga o'tadi; o'quvchilarda o'z bilimlarini mustaqil tizimli ravishda to'ldirishga psixologik munosabatni shakllantiradi va yangi kognitiv muammolarni hal qilishda ilmiy hamda ijtimoiy axborotlar oqimida harakatlanish ko'nikmalarini rivojlantiradi; o'quv jarayonida o'quvchining mustaqil bilish faoliyatini pedagogik boshqarish boshqarishning eng muhim vositasidir.

Shu nuqtai nazardan ta'lim jarayonida mustaqil ishni pedagogik jihatdan yuqori saviyada tashkil etish, ta'lim oluvchida nostandart tafakkurni rivojlantirib, amaliy faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Ta'lim oluvchilarda harakatlarini ko'chirish, ya'ni bir metodikani boshqa jarayonda

qo'llab ko'rish, mavjud obyekt va hodisalar o'tasidagi bog'liqlikni aniqlash hamda masala mohiyatini qiyosiy taqqoslash yaxshi samara beradi. Reproduktiv faoliyat, ya'ni to'plangan bilim va tajriba asosida xotiradagi mavjud bilimlarga tayanib o'rganilayotgan obyektning xususiyat va sifatlari haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash hamda ijodiy yondashish mustaqil ta'lif mazmuni bilan bog'lanishi lozim. Mustaqil ishlarni tashkil qilishda o'qituvchi induktiv va deduktiv xulosalar, ya'ni olingen natijalarga tayanib nostandard ijodiy yondashgan holda topshiriq va vazifalar yechimini samarali yo'llarini taklif etishi mumkin. Bu bilan o'quvchida masala mohiyatini anglashga rag'bat va uning yechimiga ijodiy yondashishga da'vat ta'minlanadi. Bunda o'qituvchi mustaqil ta'lif topshiriqlarini baholashda bilim va ma'lumotlarni uzatish, ya'ni berilgan topshiriq va vazifa yechimi yuzasidan yangi yondashuvlar, ilmiy farazlar hamda muqobil variantlarga ustuvorlik berishi lozim bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik jarayonda mustaqil ish bilan bog'liq o'quv faoliyatini takomillashtirishning pirovard maqsadi ta'lif oluvchilarda mustaqil ravishda maqsadni belgilay olish, muammoning yechimini topish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirish, amalga oshirish usullarini nostandard va optimal yangi muqobil variantlarini taklif eta olish qobiliyatini qaror toptirishdan iboratdir.

Ta'lif oluvchida ijodiy yondashish ko'nikmasini shakllantirish, turli xil vazifa va topshiriqlarni nostandard variantlar asosida hal etish malakasini rivojlantirish orqali o'qituvchining fan va mavzuga oid ko'rsatmalari asosida o'quv muammosini hal qilishda bilim va harakatlar uyg'unligini maqsadga muvofiq tashkillashtirish hamda zarurat tug'ilganda ishlata olish qibiliyatini rivojlantirishga erishiladi. Ta'lif oluvchining o'quv faoliyatini tashkillashtirishda individual nostandard operatsiyalarini amalga oshirish ko'nikma va malakasini shakllantirish asosida esa ijodkorlik motivini qaror toptirish ta'minlanadi. Berilgan bilim asosida ta'lif oluvchi shaxsida individual va maxsus nostandard ijodiy yondashuv tizimini mustaqil kashf etishga yo'naltirish va natija samaradorligiga erishish ta'lif oluvchida mustaqil faoliyatni tashkil etish malakasini shakllantirish hamda harakatlar yaxlitligi tuzilmasi muvofiqligini ta'minlash imkonini beradi.

Ta'kidlash lozimki, nostandard tafakkurga ega bo'lgan shaxsning asosiy fazilatlaridan biri bu uning ijodiy qobiliyatlarni mustaqil tarbiyalab rivojlantira olganligidadir.

Bizning nuqtai nazarmizcha, nostandard tafakkurini rivojlantirish orqali muvaffaqiyatga erishgan shaxslar evristik va ijodiy turdag'i mustaqil ish bilan faoliyati bilan ko'proq shug'ullangan.

Evristik mazmun-mohiyatga ega bo'lgan mustaqil ish, ma'lum ma'noda, pedagog yoki boshqalar tomonidan qo'yilgan vazifa va topshiriqlar yechimini topish uchun standart va qolipdan chiqqan holda nostandard vaziyatlarda yechim izlash ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Bunda ta'lif oluvchi masalani yechish, vazifa va topshiriqn hal qilish yo'lini mustaqil belgilaydi hamda uni nostandard muqobil variantlarini taklif eta oladi. Ta'lif oluvchi ushbu masala yuzasidan zarur bilimga ega bo'lishi mumkin, ammo nazariy jihatdan kerakli vaziyatda undan maqsadli foydalana olmaslik holatlariga uchrashi mumkin. Bu uning qobiliyatsizligidan dalolat bermaydi, aksincha bilimlar majmuini assimilyatsiyasining dominantligi mahsuli deb qaralishi maqsadga muvofiq. Mana shu jarayonning mavjudligi ham shaxsni ijodiy yondashishga, mavjud bilim va malakani ishga solishga, nostandard yondashuvlarni ijodkori bo'lishga xizmat qiladi hamda ijodiy shaxsni shakllantiradi. Bu jarayon ta'lif oluvchidan doimiy ravishda izlanish, olingen bilimlarni tasniflash, umumlashtirish va tizimlashtirish, ularni mutlaqo nostandard vaziyatlarga o'tkazishni taqozo etgan holda, zaruriy ko'nikma va malakani shakllantirib, o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojni yanada oshiradi.

Mustaqil ish ta'lif oluvchi uchun yangi bilimlarni egallash imkonini yuzaga chiqarib, nostandard ijodiy izlash ko'nikmalarini shakllantirish orqali malakalarini mustahkamlar ekan, mustaqil ish ta'lif oluvchining mustaqil faoliyati asosini tashkil etgan holda, quyidagi nostandard ijodiy xususiyatlarni o'zida namoyon etadi, deb xulosa chiqarish mumkin: mustaqil ish ta'lif oluvchida nostandard ijodiy qobiliyatni yuzaga chiqarib, mavjud bilim, nazariy va amaliy tajriba uyg'unligini ta'minlagan holda faol harakatlar yaxlitligini ta'minlab, yangi yondashuvlarni yuzaga kelishiga zamin bo'ladi; mustaqil ish ijodiy yondashuv asosida ta'lif oluvchi tomonidan o'z rejasiga muvofiq amalga oshirilsa, uning yechimi mahsuli sifatida yangi nostandard usullar yuzaga keladi; mustaqil ishning o'ziga xos xususiyati nostandard muqobil variantli bo'lishini taqozo etgan holda, ta'lif oluvchining ijodiy fikrlashiga motivatsiya berishi hamda yo'naltirishini taqozo etadi; mustaqil ish ta'lif oluvchini tayyor namuna va shablondardan xalos etishga yo'naltirishi hamda ijodiy nostandard yondashuvlarga moslashuvchanligini ta'minlashi va izlanuvchanlik ko'nikmasini qaror toptirishi bilan xarakterlanadi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, zamonaviy pedagogik faoliyatda nostandard tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan ijodiy xarakterga ega bo'lgan mustaqil ish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni yuqori pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq deb o'yaymiz:

PEDAGOGIKA

- ta'lim jarayonida har bir darsda ta'lim oluvchiga taqdim etilayotgan mustaqil ishlarning mazmuni ijodiy xarakterga ega bo'lishi hamda asosiy maqsadi nostandart tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim;

- darsdan tashqari tashkil etilgan va ta'lim oluvchiga berilgan mustaqil ish nostandart ijodiy mohiyatga ega bo'lib, mustaqil ishning boshqa turlari bilan sintezlanishi va assimilyatsiyalashuvi kerak;

- ta'lim oluvchiga taqdim etilgan mustaqil ish xususiyati va mohiyatiga ko'ra ijodiy yondashuvni hamda oddiylik va murakkablik sifatlarini o'zida mujassamlashtirgan holda tahliliy kompetentlikni taqozo etishi zarur.

Zamonaviy pedagogikada ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyati tizimida nostandart ijodiy mustaqil ish ta'lim va tarbiyaning asosi bo'lib xizmat qilishi borgan sari oydinlashib bormoqda. Bugungi kunda mustaqil ish va unga nisbatan yo'naltirilgan ta'lim oluvchi faoliyati principial ahamiyatga ega bo'lib, yangi bilimlarni olish, o'qish va izlanish, tafakkurning analiz va sintez operatsiyalarini amalga oshirish asosida zamonaviy nostandart g'oya va takliflarni ilgari surish imkonini beradi hamda o'quvchining mustaqil izlanish ko'nikmalarini shakllantirib, kreativlik malakalarini mustahkamlaydi.

Ta'lim jarayonida mustaqil ishlarni tashkil etish amaliyotida maqsadsiz va samarasiz faoliyatlar amalga oshirilishi, bu esa ta'lim oluvchining ijodiy yondashuvi va nostandart fikrlashiga xizmat qilmasligi tadqiqotchi P.I.Pidkasisti tomonidan tahlil etilgan bo'lib, bunda quyidagi xarakterli xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- ta'lim jarayonida mustaqil ishni tashkil etishda aniq tizimning yo'qligi (bu shundan dalolat beradiki, tashkil etilgan mustaqil ta'lim mazmunan, miqdor va shakl jihatdan tasodifiydir);

- taklif etilayotgan mustaqil ish saviyasi va darajasi va ta'lim oluvchining bilim olish qobiliyati o'ttasidagi muvofiqlikning ta'minlanmaganligi (pedagog tomonidan vazifalarni tanlashda zaif ifodalangan individual yondashuvning ustunligi);

- tavsiya etiladigan mustaqil ishning monoton xarakterga ega ekanligi (davomiylik va izlanuvchanlik sifatiga ega bo'Imagan holda ta'lim oluvchi uchun maqbul emas).

Bizningcha, mustaqil ish ta'lim oluvchini ijodiy fikrlashga, kreativ yondashishga hamda o'z ustida doimiy va tanqidiy ruhda ishlashini taqozo etishi lozim. Buning uchun mustaqil ish saviya va salohiyati bilan har bir ta'lim oluvchini o'rganishga va izlanishga hamda nostandart yondashishga yo'naltirishi va natijasi motvatsion omillar bilan bevosita uyg'unlashgan bo'lishi zarur.

Ta'lim jarayonida mustaqil ish darsning turli bosqichlarida qo'llanilishi, pedagogik va psixologik yondashuvga ega bo'lishi, uslubiy omillar tavsiyaviy ahamiyat kasb etishi hamda ta'lim oluvchining yosh va individual xususiyatlaridan kelib chiqib tashkillashtirilishi talab etiladi. Bunda ta'lim oluvchining yoshi, jinsi, individual xususiyatlari va o'zlashtirish imkoniyatlari; ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv materialning hajmi va o'ziga xos xususiyatlari; ta'lim oluvchining mustaqil ish bilan shug'ullanishdarajasi, dunyoqarashi, tahvilii saviyasi, ijodiy yondashishi hamda bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlarining ishlab chiqilganligi; ta'lim oluvchiga taqdim etilayotgan mustaqil ish savollari, topshiriqlar ko'lami va hajmi, materiallarning oddiylik va murakkablik darajalari hamda ijodiy yondashish usullariga real misol kelish darajasining inobatga olinganligi; ta'lim oluvchining bilim salohiyati va mustaqil ishslash ko'nikmalari, hamda kompetentlik darajasi hisobga olinishi lozim.

Ta'lim jarayonida integratsiya, izchillik, uzluksizlik va uzviyilagini ta'minlashga xizmat qiluvchi mustaqil ish topshiriqlari ta'lim oluvchi kognitiv qiziqish va tafakkur faoliigiga asoslangan hamda nostandart ijodiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ta'lim tizimida maqsadli tashkil etilgan mustaqil ish yaxlitlik va izchillikda amalga oshirilsa, ta'lim-tarbiya sifatini oshirib, o'quv jarayonini faollashtiradi hamda ta'lim oluvchi shaxsida nostandart tafakkurni yuqori saviyada qaror topishini ta'minlaydi. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida mustaqil ishlarini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish uchun shart-sharoitlarni yaratish ta'lim oluvchiga mustahkam bilim berish manbai bo'lib, nostandart ijodiy yondashuv qibiliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, bugungi kunda ijodiy xarakterdagи mustaqil ish ta'lim oluvchilarni izlanishga, nostandart tafakkurini rivojlantirishga, individual va guruhi ilmiy faolligini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Zamonaviy pedagogik o'quv jarayonni tashkil etishda ta'lim oluvchilarning mustaqil ish bilan shug'ullanishi va ijodiy kompetentligi nostandart tafakkur motivi ekanligini tasdiqlagan holda mustaqil

ishni ta'larning barcha bo'g'in va bosqichlarda samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur. Bizning nuqtai nazarmizcha, bunda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: ta'lim tizimining barcha bo'g'in va bosqichlarda, turli darajada tasniflangan aqliy faoliyatni rag'batlantiruvchi mustaqil ish turlarini rejali va maqsadli joriy etish; ta'lim oluvchilarining yoshi va individual xususiyatlardan kelib chiqqan holda motivatsion yondashuv va rag'batlantiruvchi metodikalardan foydalangan holda mustaqil ish topshiriqlarini imkoniyat va salohiyat darajasida kreativlik asosida bajarishga yo'naltirish; ta'lim oluvchilarining mustaqil ish bilan ishlash ko'nikma va malakalarini oshirishga doir bilim va tushunchalarini o'qituvchi tomonidan nazariy va amaliy dars davomida muntazam va uzlusizligini optimal ta'minlash texnologiyasini joriy etish; mustaqil ishni tashkil etishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni har bir o'quv fani o'qituvchisi tomonidan o'z faniga moslab tushuntirish va ijodiy yondashish ko'nikmasini ta'lim oluvchi shaxsida shakllantirish; mustaqil ishni bajarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarda nostandard yondashuv asosida masala mohiyatini yoritish yuzasidan zaruriy tavsiyalarni berib borish hamda ta'lim oluvchining har bir fikrini, hatto noto'g'ri bo'lsa ham, rag'batlantirish; mustaqil ish va topshiriqlarni ta'lim oluvchi tomonidan yuqori saviyada bajarishi uchun lozim bo'lgan asosiy va yordamchi manbalar bilan tanishtirish; mustaqil ishni bajarish jarayonida ta'lim oluvchini o'qituvchi tomonidan o'z-o'zini nazorat qilish va motivatsion rag'batlantirish usullarini o'rgatish.

XULOSA

Umuman, zamonaviy pedagogik yondashuvlar vositasida mustaqil ta'limni tashkil etish orqali o'quvchilarining nostandard tafakkur tarzini rivojlantirish o'qituvchiga keng pedagogik va metodik imkoniyatlar taqdim etadi. Bugungi kunda umumiyl o'rta ta'lim maktablarida mustaqil fikrga ega, nostandard vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish ko'nikmasiga ega va olgan bilim, malaka va ko'numalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash olish malakasiga ega o'quvchi shaxsini tarbiyalash talab qilinayotgan ekan, buning uchun mustaqil ta'lim mazmunini ham o'sha talablarga moslashtirish zarur. Bunda mustaqil ish topshiriqlarini o'quvchilarining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirish lozim. Buning uchun o'qituvchining o'zidan ham mustaqil ta'lim va uni tashkil etishga nisbatan ijodiy va kreativ yondashish talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бергсон А. Творческая эволюция. М.: 1908 г. Стр. 340.
2. Выготский, Л.С. Лекции по психологии /Л.С. Выготский; – СПб.: Союз, – 2006. – 144 с.
3. Леменкова П.А. Эволюция взглядов аристотеля на проблему человека и окружающего мира / <https://hal.archives-ouvertes.fr/hal-01986701/document>
4. Мистическая «теория творчества» по Платону / Манба: <https://vikent.ru/enc/5420/>
- 5. Нильс Хенрик Давид Бор – биография, (to-name.ru/biography/nils-bor.htm)**
6. Шеров М.Б. Креатив тафаккур ҳақида фалсафий қарашлар эволюцияси. // ARES Vol.1 №.1,?2020. ISSN 2181-1385. <https://cyberleninka.ru/article/n/kreativ-tafakkur-a-idagi-falsafiy-arashlar-evolyutsiyasi>
- 7.Lutskovich V.V. Spetsifikva vzaimosvyazi tipov mishleniya i subyektivníx osobennostey ponimaniya//Eksperimentalnaya psixologiya, 2013, tom 6, № 3. –S.54
8. Davletshin M.G. va boshqalar. Ta'larning psixologik asoslari. O'quv qo'llanma – T.: O'QITUVCHI. 1995 y. 20 b.
9. Maklakov, A.G. Obshaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov / A.G. Maklakov. - SPb.: Piter, 2013. – 583 c.
10. Yesipov B. P. Samostoyatelnaya rabota uchashixsy na urokax. http://elib.gnpbu.ru/text/esipov_samostoyatelnaya-rabota_1961/go,0;fs,1/
11. Stepanova YE.S. Samostoyatelnaya rabota uchashixsy: istoriko-pedagogichenskiy aspekt http://elar.uspu.ru/bitstream/uspu/56/1/fn_2014_13_24.pdf